

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATIONS IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Agroklasterlar samaradorligini oshirish yo'llari

Berdiyev Abdumalik Hakimovich

Пути повышения эффективности сельскохозяйственных кластеров

Бердиев Абдумалик Хакимович

Ways to increase the efficiency of agricultural clusters

Berdiev Abdumalik Khakimovich

Received: May 11, 2025 Revised: May 13, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish, fan va texnikaning rivojlanishi natijasida barcha sohalar kabi agrar sohada ham tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu sohani rivojlantirishga esa davlat va jamiyat oldidagi muhim ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Bunga asosiy sabab, agrar soha mamlakat oziq-ovqat muammolarini hal etish bilan birga oziq-ovqat sanoati korxonalarini xom-ashyo bilan ta'minlaydigan asosiy tarmoq hisoblanadi. Agrar sohada klasterlashuv modeli jahon amaliyotida o'z samaradorligini ko'p marta isbotlagan mexanizm hisoblanadi. Agroklasterlar — bu o'zaro bog'liq qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, qayta ishlovchi korxonalar, logistika xizmatlari, ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda moliya institutlarini yagona hududiy tizimda birlashtirish orqali yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot yaratishni maqsad qiladi. So'nggi yillarda Respublikamizda xalqaro amaliyotda sinalgan, iqtisodiyotni rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadigan klaster tizimini joriy etish, bozor munosabatlari va tajribalarini hayotga tadbiiq etishga katta e'tibor berilmoqda. Buning natijasida, agroklasterlar samaradorligini oshirish qishloq xo'jaligi sohasining umumiy raqobatbardoshligini ko'tarish, aholi bandligini ta'minlash va mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.
- **Kalit so'zlar:** Agroklaster, ishlab chiqarish samaradorligi, klaster tizimi, qo'shilgan qiymat zanjiri, innovatsion agro-texnologiyalar, klaster infratuzilmasi, modernizatsiya, eksport, import, marketing strategiyalari, mahsulot sifati.
- **Аннотация.** В результате либерализации экономики и развития науки и техники в нашей стране происходят коренные изменения во всех сферах, в том числе и в аграрной. Развитие этой отрасли рассматривается как важнейшая приоритетная задача перед государством и обществом. Основная причина этого заключается в том, что аграрный сектор, наряду с решением проблем продовольственного обеспечения страны, является основным звеном, обеспечивающим сырьём предприятия пищевой промышленности. Модель кластеризации в аграрной сфере является механизмом, многократно доказавшим свою эффективность в мировой практике. Агрокластеры — это объединения взаимосвязанных сельскохозяйственных производителей, перерабатывающих предприятий, логистических служб, образовательных и научно-исследовательских учреждений, а также финансовых институтов в единую территориальную систему с целью создания продукции с высокой добавленной стоимостью. В последние годы в нашей Республике уделяется большое внимание внедрению кластерной системы, прошедшей проверку международной практикой, которая играет важную роль в развитии и обеспечении устойчивости экономики, а также в применении рыночных отношений и передового опыта в жизни. В результате этого повышение эффективности агрокластеров

способствует повышению общей конкурентоспособности сельского хозяйства, обеспечению занятости населения и укреплению экспортного потенциала страны.

- **Ключевые слова:** Агрокластер, производственная эффективность, кластерная система, цепочка добавленной стоимости, инновационные агротехнологии, инфраструктура кластера, модернизация, экспорт, импорт, маркетинговые стратегии, качество продукции.
- **Abstract.** As a result of economic liberalization and the development of science and technology, fundamental changes are taking place in all sectors of our country, including the agricultural sector. The development of this sector is considered one of the most important priorities for both the state and society. The main reason for this is that the agricultural sector, in addition to addressing the country's food security issues, serves as the primary source of raw materials for food industry enterprises. The clustering model in the agricultural sector is a mechanism that has repeatedly proven its effectiveness in global practice. Agro-clusters are associations of interrelated agricultural producers, processing enterprises, logistics services, educational and research institutions, as well as financial institutions, united within a single territorial system with the aim of creating high value-added products. In recent years, great attention has been paid in our Republic to the introduction of the cluster system, which has been tested by international practice and plays a significant role in the development and stability of the economy, as well as in the implementation of market relations and best practices. As a result, improving the efficiency of agro-clusters contributes to enhancing the overall competitiveness of agriculture, ensuring population employment, and strengthening the country's export potential.
- **Keywords:** Agro-cluster, cluster system, innovative agrotechnologies, cluster infrastructure, modernization, export, import, marketing strategies, product quality.

KIRISH

Bugungi kunda butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash va ularning manfaatdorligini ta'minlash masalalari to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarishning zamonaviy shakli — klasterlar tizimi bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatlar zanjirini yaratish hamda tabiiy va moddiy resurslardan samarali foydalanish maqsadida klaster usuli keng joriy etilmoqda. Xususan, bugungi kunda qishloq xo'jaligining barcha yo'nalishlarini qamrab olgan.

Agroklasterlar sohani zamonaviy innovatsiyalar bilan boyitish va raqobatbardoshligini oshirish uchun samarali vosita hisoblanib, fermerlar, qayta ishlovchi korxonalar, ta'minotchilar va bozor o'rtasida integratsiyani ta'minlab, ishlab chiqarish jarayonlarini tizimli ravishda takomillashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Klasterlar hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, qo'shimcha qiymatga ega ishlab chiqarish jarayonlariga o'tish, korxonalar, ilmiy-tadqiqot, ta'lim, moliya institutlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'rnatishga hissa qo'shish vositasi sifatida ishlaydi. Klaster yondashuvi mintaqaviy va sanoat siyosatining mazmunini tubdan o'zgartiradi,

chunki davlat organlarining sa'y-harakatlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va davlat institutlari o'rtasidagi munosabatlar tizimini rivojlantirishga qaratilgan.

Agroklasterlar qishloq xo'jaligining turli tarmoqlarini qamrab olgan bo'lib, don mahsulotlari, poliz va sabzavot yetishtirish, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hamda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Xususan, don mahsulotlari va paxta ishlab chiqarish sohalarida bir qator yirik agroklasterlar faoliyat yuritmoqda. Bu klasterlar yangi texnologiyalarni joriy etish, yerdan samarali foydalanish va qayta ishlash quvvatlarini oshirish orqali hududning agrosanoat salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda aholi salomatligini ta'minlash va turmush darajasini yaxshilash ekologik toza va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar yetishtirish agroklasterlarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Suv resurslaridan tejimli foydalanish maqsadida tomchilatib sug'orish tizimlari keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, organik dehqonchilik usullari ham rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayrim agroklasterlar o'z mahsulotlarini xalqaro standartlar bo'yicha sertifikatlab, tashqi bozorga eksport qilishga muvaffaq bo'lmoqda.

Agroklasterlarning yana bir muhim jihati — ishlab chiqarish jarayonlarini qayta ishlash korxonalari bilan bog'lashdir. Bu mahsulot qiymat zanjirini to'liq ta'minlash va ishlab chiqarilgan xom-ashyoni yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotga aylantirish imkonini beradi. Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha tashkil etilgan klasterlar

hududdagi eksport hajmini oshirishda katta rol o'ynamoqda. Eksport yo'nalishidagi natijalarga kelsak, agroklastarlari Rossiya, Qozog'iston, Xitoy va boshqa mamlakatlarga meva-sabzavot va qayta ishlangan mahsulotlarni eksport qilmoqda. Shu maqsadda logistika tizimini yaxshilashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Sovutilgan omborxonalar, transport-logistika markazlari tashkil etilishi eksport salohiyatini oshirishga yordam bermadi.

Shuningdek, davlat tomonidan berilgan imtiyozlar va qo'llab-quvvatlash choralari ham agroklastarlarning barqaror rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Agroklastarlar uchun imtiyozli kreditlar, yer ajratish va subsidiyalar berish kabi chora-tadbirlar klasterlar faoliyatini yanada samarali va rivojlangan holatga keltirishda muhim ahamiyatga ega.

Shunday ekan, agroklastar tizimini rivojlantirish nafaqat paxtachilik bilan bog'liq yengil sanoat sohasi, balki oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sohasi korxonalari, qurilish materiallari, farmatsevtika sohasini ham rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentyabrda davlat budjeti tushumlarini ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni to'liq bajarish bo'yicha belgilangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish, paxta-to'qimachilik sohasida klasterlarni joriy etishni jadalalashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida "klasterlar faoliyatiga har tomonlama yordam berishimiz zarur. Paxtachilikda qishloq xo'jaligining kelajagi, uning iqtisodiy samaradorligi klasterlar bilan bog'liq. Klasterlar agrar sohani jadal rivojlantirishning "lokomotivi" bo'lishi kerak" [1] deb ta'kidlaganlar.

Bundan tashqari qishloq xo'jaligida agroklastar yondashuvning muhimligi to'g'risida xorijiy olimlar va mutaxassislarning tadqiqotlarida ham bu xo'jalik yuritish tizimini muhimligi to'g'risida ijobiy baho berilgan. Jumladan, 20-asrning 80-yillarida M.Porter tomonidan "klaster" atamasi iqtisodiy kategoriya sifatida kiritilgan. Uning fikricha, klaster-ma'lum sohada faoliyat ko'rsatayotgan kompaniya va institutlarning geografik jihatdan tarmoqlararo birlashuvi [1] deb ta'kidlangan bo'lsa, A.A.Nastin tomonidan "agroklastar bir vaqtda va o'zaro hamkorlikda ishlab chiqarish vazifalarini hal qilish va atrof muhitni himoya qilishda birlashish maqsadida geografik jihatdan bir joyda joylashgan, o'zaro bir-biriga bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi, turli mulk egalari oilaviy ferma, fermerlarning kooperativ korxonalari, ijtimoiy va ilmiy tashkilotlar, ta'lim muassasalari va maslahat xizmatlaridan iborat bozor sub'ektlari tizimi" [2], A.V.Glotko tomonidan berilgan ta'rifda "agrosanoat majmuidagi tadbirkorlik agroklastari ushbu tizimda ma'lum darajada o'zaro aloqa qilish madaniyatiga ega bo'lgan bog'liq ishtirokchilarning umumiy iqtisodiy manfaatlarini amalga oshiruvchi va texnologik zanjir tamoyili asosida tashkil etilgan hududiy jihatdan alohida innovatsion

yo'naltirilgan integratsion to'zilma" [4] tarzida bayon etilgan. R.R.Toxchukov esa, yanada aniqroq tarzda, "tadbirkorlik agroklastari-pirovard natijada samara olish hisoblangan ishlab chiqarishning barcha bosqichlari, ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotni sotish-gacha bo'lgan jarayonlarni yagona takror ishlab chiqarish tarzida mujassamlashtirgan turli faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarni birlashuvi" [3] dan iborat ekanligi sifatida ta'riflagan va ilmiy ishlarida ta'kidlab o'tgan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Shunda ekan, respublikamizda keyingi yillarda qishloq xo'jaligi sohasida bu xo'jalik yuritish tizimini joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini barcha sohalari agroklastarlarning tashkil etilishi natijasida, meva sabzavotchilik sohasida 245 ta klasterlar faoliyati yuritib ularga 79,2 ming. gektar yer maydonlari birlashtirilgan. Yetishtirilayotgan meva-sabzavotlari 15,3 ming nafar fermer xo'jaliklari bilan 147,9 ming gektar yer maydonlarida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish bo'yicha fyu'chers shartnomasi asosida ish olib borilmoqda. 62 ta klasterlarda quvvati 956,2 ming tonna bo'lgan qayta ishlash zavodlari, 32 ta klasterlarda quvvati 290,5 ming tonna bo'lgan mahsulotni saralash va qadoqlash, 23 ta klasterlarda quvvati 230,5 ming tonnalik mahsulotni quritish hamda 136 ta klasterlarda quvvati 360 ming tonnalik oddiy va muzlatkichli omborxonalar mavjud.

Paxta-to'qimachilik klasterlari 134 tadan iborat bo'lib, ularga birlashtirilgan yer maydoni 1034,2 mln. gektarni tashkil etadi. Yetishtirilayotgan paxta xom-ashyosi 28,2 mingta fermer xo'jaliklari bilan bozor tamoyillari asosida, 873,0 ming gektar yer maydonida yetishtirilmoqda.

2018-2022-yillarda sohada sanoatni rivojlantirish uchun jami 15 trln. 942 mlrd. so'm jumladan, 4,7 trln.so'm o'z mablag'i hisobidan, qolgan 11,2 trln.so'm xorijiy investitsiyalar va bank kreditlari hisobidan investitsiya kiritildi.

Klasterlarning 22 tasida paxtani qayta ishlashning 5 ta bosqichi, 21 tasida 4 ta bosqich, 30 tasida 3 ta bosqich, 38 tasida 2 ta bosqich va 23 tasida 1 ta bosqich qamrab olingan.

2022-2026 yillarda paxtani chuqur qayta ishlashni tashkil etish bo'yicha umumiy qiymati 25,5 trln. so'mlik 270 ta investitsiya loyihalari amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligining g'allachilik sohasida 157 ta klasterlar faoliyat yuritib kelmoqda. Ularga birlashtirilgan yer maydoni 1038,0 ming gektarni tashkil etadi. G'alla yetishtirish bo'yicha 36,0 mingta fermer xo'jaliklari bilan 957,0 ming gektar yer maydonida hamkorlik olib borilmoqda.

G'allachilik klasterlari tomonidan 2020-yilda qiymati 547,2

mlrd. so'm (sh.j: 193,3 mlrd. so'm o'z mablag'lari, 353,9 mlrd. so'm bank kreditlari) va 20,3 mln. dollar miqdorda xorijiy kredit mablag'lari hisobiga 65 ta loyihalar ishga tushirilib, 3695 ta doimiy ish o'rinlari yaratildi.

2022 yilda yilda 83 ta g'allachilik klasterlari tomonidan 1 trln. 164 mlrd. so'mlik 122 ta investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Klasterlar tomonidan 234,0 ming tonna don saqlaydigan ochiq maydonlar, 166,0 ming tonna yopiq omborlar, 156,0 ming tonna un mahsulotlari, 3,8 ming tonna non va non mahsulotlari hamda 79,0 ming tonna ozuqa-yem ishlab chiqarish quvvatiga ega sexlar ishga tushirildi.

Agroklastlarlar qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sohalari muhim natijalarga erishmoqda. Ular mahsulot hajmini oshirish, qayta ishlash va eksport qilish jarayonlarida muhim rol o'ynamoqda. Hududdagi agroklastlarlarning kelgusidagi rivojlanishi mamlakatning agrosanoat salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Agroklastlarlar muvaffaqiyati ularning zamonaviy va yaxshi rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lishiga bog'liq. Shu sababli, quyidagi choralar muhim ahamiyatga ega:

- Qishloq xo'jalik mahsulotlarini bozorlarga tez va samarali yetkazib berish uchun yo'llar, omborlar va logistika markazlarini qurish zarur.
 - Zamonaviy sug'orish texnologiyalarini (tamchilatib sug'orish, avtomatlashtirilgan tizimlar) joriy etish kerak.
 - Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish (masalan, quyosh va shamol energetikasi).
- Agroklastlarlarda innovatsiyalarni qo'llash va raqamlashtirish samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va axborot-kommunikatsiya vositalari orqali ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish fermerlar hamda ishlab chiqaruvchilar uchun katta imkoniyatlar yaratadi.
- Agrodronlar va sensorlardan foydalanish: Yerlarning holatini monitoring qilish va hosildorlikni nazorat qilish uchun agrodronlar hamda zamonaviy sensorlardan foydalanish juda samarali. Bu texnologiyalar orqali zararkunandalar qarshi kurashish va suv tejamlorligi ta'minlanadi.
 - Raqamli platformalar: Agroklastlar ishtirokchilari uchun raqamli platformalar yaratish ma'lumot almashishni yengillashtiradi. Bu platformalar orqali mahsulot sotish, sotib olish va ta'minot zanjirini samarali boshqarish mumkin.
 - Aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalari: Avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlari, sun'iy intellekt va Internet orqali boshqariladigan agrotizimlardan foydalanish hosildorlikni sezilarli darajada oshiradi.
 - Ilmiy-tadqiqot ishlari: Universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilish innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, yangi turdagi urug'liklar yaratish va zararli ekologik ta'sirlarni

kamaytirishga qaratilgan tadqiqotlar agroklastlarlarning barqarorligi uchun foydalidir.

Bu innovatsion yondashuvlar agroklastlarlarda ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Ular nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, balki bozor talablariga tez va samarali javob berish imkoniyatini ham yaratadi.

Mutaxassis kadrlar yetishmovchiligi agroklastlarlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatlarni bartaraf etish uchun:

- Fermerlar va klaster ishtirokchilari uchun yangi texnologiyalar bo'yicha o'quv kurslari trening va seminarlar tashkil.
- Agroiinjeneriya, agrobiznes va boshqa sohalarda bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish.
- Yosh mutaxassislarning ishlab chiqarish jarayonlarida amaliyot dasturlari ishtirok etishini ta'minlash.

Agroklastlarlar qishloq xo'jaligi sohasida innovatsion rivojlanish va yuqori qo'shimcha qiymat yaratishda muhim ahamiyatga ega tuzilmalar hisoblanadi. Ular qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, qayta ishlovchi korxonalar va bozor ishtirokchilari o'rtasida uzluksiz hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, davlat tomonidan katta ko'makka ega. Bunday qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslari va amaliy mexanizmlari agrosanoat tarmog'ini barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi.

Avvalo, davlat qonunchilik orqali agroklastlarlarni shakllantirish va rivojlantirishga imtiyozlar yaratadi. O'zbekistonda "Qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi to'g'risida"gi qonun, turli hukumat qarorlari va normativ hujjatlar agroklastlarlarni qonuniy tartibga soladi. Bunday hujjatlar klaster ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini aniq belgilash, yerdan foydalanish tartiblari hamda soliq imtiyozlarini nazarda tutadi. Davlat yordami agroklastlarlar uchun moddiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash shaklida ham amalga oshiriladi. Xususan, yer uchastkalari ajratish, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar berish, infratuzilmani rivojlantirishga grantlar ajratish kabi choralar qo'llaniladi. Shuningdek, energiya resurslari va suv ta'minoti bo'yicha maxsus tariflar qo'llanishi agroklastlarlarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Agroklastlarlar innovatsiya va texnologiyalarni joriy etishda ham davlat ko'magidan foydalanadi. Zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tadqiqot institutlari va ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilinadi. Bu jarayonda ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish va o'quv dasturlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatidagi yana bir muhim yo'nalish hisoblanadi. Agroklastlarlar mahsulotlarining xalqaro bozorga

chiqishi uchun davlat tomonidan sertifikatlashtirish, logistika va tashqi savdo shart-sharoitlarini yaxshilash choralari ko'riladi.

Agroklastlar davlat ko'magi va huquqiy asoslarga tayanagan holda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, resurslarni samarali boshqarish va aholi farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Davlat va xususiy sektor hamkorligi, huquqiy bazaning takomillashtirilishi hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining rivojlantirilishi bu jarayonda ustuvor ahamiyatga egadir.

Agroklastlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tortib, qayta ishlash va tashqi bozorlarga eksport qilishgacha bo'lgan butun texnologik jarayonlarni birlashtiruvchi tizimdir. Bu tuzilmalar nafaqat mahalliy bozorni sifatli mahsulot bilan ta'minlash, balki mamlakatning eksport salohiyatini oshirishda ham muhim o'rin tutadi. Shu bois agroklastlarda eksport imkoniyatlarini kengaytirish davlat va biznesning ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Eksport salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish va sifatli mahsulot yetishtirishdir. Xalqaro bozor talablari bo'yicha ekologik toza, sertifikatlangan va xalqaro standartlarga javob beruvchi mahsulotlarga talab yuqori. Shu maqsadda agroklastlarda zamonaviy sug'orish texnologiyalari, seleksiya va ulug'turish ishlari hamda organik mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha innovatsiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Bozor diversifikatsiyasi ham eksport salohiyatini oshirishda muhim omildir. An'anaviy eksport bozorlari bilan bir qatorda yangi mamlakatlarga mahsulotlarni yetkazib berish yo'nalishlarini kengaytirish talab etilmoqda. Bu jarayonda tashqi bozorlar analizi, talab va iste'molchilarga muvofiq mahsulot turlarini shakllantirish muhimdir.

Logistika va infratuzilmani yaxshilash ham eksportni kengaytirishga xizmat qiladi. Mahsulotlarni tez va sifatli yetkazib berish uchun zamonaviy sovetgich tizimlari, logistika markazlari va eksport koridorlari yaratish zarur. Bu jarayonda agroklastlarni eksport uchun maxsus logistik halqalarga bog'lash muhimdir.

Shuningdek, xalqaro bozorlarda marketing strategiyasini ishlab chiqish ham katta ahamiyatga ega. Agroklast mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun ularni brending qilish, xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish va raqamli marketing vositalaridan foydalanish talab etiladi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari ham eksport salohiyatini oshirishda muhimdir. Eksportchilarga subsidiyalar, soliqliq imtiyozlari va sertifikatlashtirish jarayonlarida yengilliklar berish bu yo'nalishda samarali qadamlar hisoblanadi. Shuningdek, davlat organlari tomonidan eksportchilarni xalqaro hamkorlik va investitsiya loyihalariga jalb etish choralari ko'rilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agroklastlarda eksport salohiyatini oshirish innovatsiyalar joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish, davlat ko'magi va marketing strategiyalarini ishlab chiqishga bog'liq. Mazkur yo'nalishlarda tizimli ishlar olib borilishi mamlakatning qishloq xo'jaligi sohasidagi eksport salohiyatini yanada yuksaltirishga yordam beradi.

Mahsulotlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish agroklastlar samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bunda mahsulotlarni xalqaro standartlarga mos ravishda tayyorlash, bozorda tanilishini ta'minlash uchun marketing strategiyalarini ishlab chiqish, tadbirkorlarning mahsulotlarini tanitish uchun ko'maklashish.

Agroklastlar qishloq xo'jaligi sohasida zamonaviy va integratsiyalashgan ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish orqali qishloq joylarining iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Biroq mazkur tarmoqni kengaytirish va mahsulot hajmini oshirish atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmaslikka yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Shu bois ekologik barqarorlik masalasi agroklastlar faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, zamonaviy qishloq xo'jaligini ekologik standartlarga mos ravishda olib borishni talab etadi.

Ekologik barqarorlikni ta'minlashda birinchi navbatda resurslarni oqilona boshqarish muhim ahamiyatga ega. Yer, suv va energiya kabi tabiiy resurslardan samarali foydalanish atrof-muhitni muhofaza qilishning asosiy shartlaridan biridir. Sug'orish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, tomchilatib sug'orish tizimlarini joriy etish va suv tejovchi innovatsiyalarni qo'llash suv resurslaridan tejimli foydalanishga yordam beradi.

Yerning holatini yaxshilash va unumdorligini saqlash ham ekologik barqarorlikning muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Agroklastlarda eroziyani oldini olish, tuproqning tuzlanishiga qarshi kurash va organik o'g'itlardan foydalanish orqali tuproq himoyasi ta'minlanishi lozim. Bu bilan yerning tabiiy holatini saqlab qolish va barqaror qishloq xo'jaligi rivojini ta'minlash mumkin.

Ekologik toza ishlab chiqarishga o'tish ham muhim yo'nalishlardan biridir. Ximik vositalar va pestitsidlardan kam foydalanish, biologik himoya usullarini joriy etish orqali mahsulotlarning ekologik tozaligini ta'minlash mumkin. Bu nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki yuqori sifatli va ekologik xavfsiz mahsulot ishlab chiqarishga imkon beradi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ham ekologik barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Quyosh energiyasi, shamol turbinalari yoki biogaz texnologiyalaridan foydalanish agroklastlarning energiyaga bo'lgan talabini barqaror ravishda ta'minlashga yordam beradi. Bu usul nafaqat ekologik zararni kamaytiradi, balki energiya

xarajatlarini ham pasaytiradi.

Shuningdek, chiqindilarni qayta ishlash tizimini yo'lga qo'yish ham muhimdir. Organik chiqindilardan biokompost ishlab chiqarish yoki qayta tiklanuvchi manbalar uchun energiya olish agroklastarlarda chiqindilarni minimal darajaga keltirishga yordam beradi.

Ekologik barqarorlik sohasidagi davlat qo'llab-quvvati ham katta ahamiyatga ega. Davlat tomonidan ekologik standartlarni joriy etish, imtiyozli kreditlar ajratish va ilg'or texnologiyalarni jalb etishga yordam berish agroklastarlarning barqaror rivojlanishiga ko'maklashadi.

Agroklastarlarda ekologik barqarorlikni ta'minlash innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish, ekologik xavfsiz ishlab chiqarish va davlat ko'magidan oqilona foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda atrof-muhit bilan hamohang ravishda ishlash jamiyatning uzluksiz rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Agroklastarlar qishloq xo'jaligi sohasida yangi imkoniyatlar yaratish va iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Infratuzilmani yaxshilash, innovatsiyalarni joriy etish, kadrlar tayyorlash, davlat ko'magi va eksportga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali agroklastarlar samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Bu yo'nalishda izchil harakatlar mahalliy fermerlar va ishlab chiqaruvchilar uchun yangi manfaatli bozorlar ochilishini ta'minlaydi hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Berdiyev Abdumalik Hakimovich Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, dotsent / Бердиев Абдумалик Хакимович Университет информационных технологий и управления, доцент / Berdiyev Abdumalik Khakimovich niversity of Information Technology and Management, Associate Professor**

► a.berdiyev197501@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0003-2842-9802>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". PQ-4239 (14.03.2019).
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida". PQ-4633 (06.03.2020)
- [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. "G'alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida". PQ-4634

(06.03.2020).

- [4]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori. "O'zbekiston Respublikasida zamonaviy urug'chilik klasterlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida". VMQ-512 (18.06.2019).
- [5]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 12- sentabr kuni davlat budjetiga tushumlarni ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni to'liq bajarish, yil yakuni bo'yicha belgilangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish, paxta-to'qimachilik sohasida klasterlarni joriy etishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish ma'lumotlari.
- [6]. M.Porter Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review. Available at: <http://hbr.org/product/clusters-and-the-new-economics-of-competition/an/98609-PDF-ENG>
- [7]. А.А.Настин Сельскохозяйственный кластер Дании. // «Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий», 2011, №4. -С. 45.
- [8]. А.В.Глотко Инновационно-кластерная развития АПК. Материалы межрегион. Научно-практ. конф. с междунар. участием "Проблемы и перспективы государственно-правового, экономического и социального развития субъектов Российской Федерации" 3-4 октября 2008 г., Горно-Алтайский, РИО ГАГ. -С.104.
- [9]. Р.Р.Тохчуков Предпринимательский агропромышленный кластер: теоретические основы создания и функционирования в системе АПК. // Современные научные исследования: электронный научный журнал, 19 апреля 2012 г., рубрика: "Экономика". <http://www.sni-vak.ru/info@sni-vak.ru>
- [10]. Hakimovich, B. A., & Khudayberdiyevna, D. M. (2020). Advantages of introducing agrocluster in agriculture. International Journal on Orange Technologies, 2(11), 37-40.
- [11]. Berdiyev, A. H., & Rasulov, K. K. (2022). Prospects for Cluster Activities in the Agricultural Sector: Problems and Solutions. Journal of Marketing and Emerging Economics, 2(5), 99-108.
- [12]. Hakimovich, B. A. (2024). AGROKLAsterLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. Science and innovation, 3(Special Issue 42), 251-256.
- [13]. Hakimovich, B. A. (2023). Prospects for Innovative Agricultural Development.
- [14]. Бердиев, А. Х., & Расулов, Х. К. (2020). Современный экономический механизм развития сельского хозяйства. Вестник науки и образования, (5-1 (83)), 41-45.
- [15]. Бердиев, А. Х. (2020). Использование инноваций

в сельском хозяйстве является главным фактором эффективности. Вестник науки и образования, (3-2 (81)), 9-14.

[16]. Hakimovich, B. A., & Khudayberdiyeva, D. M. (2020).

Advantages of introducing agrocluster in agriculture. International Journal on Orange Technologies, 2(11), 37-40.